

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasining 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasi. - Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2025. - 142 b.

TOSHKENT VILOYATINI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Odilov Erkin Tursunovich

*O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik
oliy maktabi Toshkent viloyati hududiy filiali rahbari*

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida “hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta‘minlash darajasini oshirish”, sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, “hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish” kabi ustuvor maqsad va vazifalarning belgilab berilishining o‘ziyiq, bugungi kunda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, aholi turmush farovonligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Hududlarni kompleks rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy salohiyatni oshirish – iqtisodiyot tarmoq va sohalarini modernizatsiyalash, investitsiyalarni jalb etish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali hudud iqtisodiyotini rivojlantirish.
2. Infratuzilmani takomillashtirish – transport, kommunal xizmatlar va telekommunikatsiya sohalaridagi infratuzilma ob‘ektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish.
3. Ijtimoiy sohani rivojlantirish – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali aholining turmush darajasini yaxshilash.
4. Innovatsiyalarni joriy etish va raqamlashtirish – zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.
5. Kadrlar salohiyatini oshirish – malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularning mehnat salohiyatini rivojlantirish.
6. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash – tadbirkorlik muhitini yaxshilash va yangi ish o‘rinlari yaratish.
7. Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash – ekologik me‘yorlarga rioya qilish orqali hududning barqarorligiga erishish [1].

Mamlakatimizning har bir hududi o‘ziga xos. Bir viloyat ichidagi tumanlarning imkoniyatlari ham bir-biriga o‘xshamaydi. Bunday tafovut albatta, inson salohiyatini oshirish hisobiga bartaraf etilishi lozim. 2024 yilda Respublika bo‘yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 19,3 % ulush bilan eng katta hissa qo‘shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari 10,1 % va 8,1 % ko‘rsatkichlari bilan

keyingi o‘rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIMini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %) va Jizzax (3,0 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan.

Shu bois Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari alohida, manzilli tarzda muhokama qilib borilmoqda. Prezidentning hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan uchrashish va muloqot qilish maqsadidagi hududlarga tashriflarida birinchi navbatda hududlar iqtisodiyotidagi o‘sish nuqtalarini belgilash va shu orqali ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi sakkiz yil ichida viloyat yalpi hududiy mahsuloti 23,9 trln so‘mdan 146,4 trln. so‘mga, yoki 6,1 baravarga oshdi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaHM hajmi mos ravishda 8,5 mln.so‘mdan 47,5 mln.so‘mgacha o‘sdi. Viloyatning barcha tumanlarida katta-kichik sanoat loyihalarining ishga tushirilishi natijasida viloyat iqtisodiyoti 1,5 barobarga o‘tib, o‘tgan yili 119 trillion so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratildi, tadbirkorlar 16 mingga ko‘payib, 170 ming doimiy ish o‘rni paydo bo‘ldi. Viloyatda 6 milliard dollarlik 826 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushdi, 5 milliard dollarlik eksport bo‘ldi. Shularning natijasida o‘tgan to‘rt yilda 70 ming, 2024 yilning o‘zida esa 19 mingta oila kambag‘allikdan chiqarildi.

Toshkent viloyatini ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida so‘nggi olti yil ichida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijasi o‘laroq, yalpi hududiy mahsulotning tarmoq tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi, xususan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHM tarkibidagi ulushi 2022 yildagi 20,1 foizdan 2024 yilda 17,7 foizgacha pasaygan bo‘lsa, xizmatlar sohasi 27,3 foizdan 30,6 foizgacha o‘sgan [4].

Mamlakat, xususan mamlakat hududlarini barqaror rivojlantirishda sanoatning o‘rni beqiyos, Bugungi kunda respublikada 55,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 10,7 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 19,2 % i) Toshkent shahriga, 6,2 mingtasi (11,2 %) Toshkent viloyatiga, 5,6 mingtasi (10,1 %) Farg‘ona viloyatiga, 4,7 mingtasi (8,5 %) Samarqand viloyatiga va 4,4 mingtasi (7,8 %) Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishida ham Toshkent viloyatining o‘rni katta, jumladan, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida 133 706,3 ming so‘m, Toshkent shahrida 55 499,8 ming so‘mni tashkil etsa, bu ko‘rsatkich Toshkent viloyatida 45 168,2 ming so‘mni tashkil qiladi va bu o‘rtacha respublika darajasi ko‘rsatkichidan (23 830,6 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoridir [4]. Shu bois, mamlakatimiz rahbari 2024 yilning 15 oktyabrida Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda Toshkent viloyatining sanoat imkoniyatlari yuqori ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi, xususan, Angren, Olmaliq, Ohangaron shaharlari, Piskent va Ohangaron tumanlarining viloyat sanoatidagi ulushi 50 foizni tashkil qiladi. Ular yonma-yon joylashgan bo‘lib, xomashyo zaxirasiga juda boy. Hozirda Toshkent viloyatining mamlakat sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 15,7 foizni tashkil qiladi. Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning

ulushi 29,8 foizni tashkil etishi bu borada tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Toshkent viloyati hududi 15 ming kvadrat kilometrni tashkil etib, bu ko‘rsatkich Andijon viloyatiga nisbatan 3,5 baravarga katta. Shu bilan birga, tuman va shaharlar soni bo‘yicha viloyat respublikada etakchi hisoblanadi. Bunday hajmdagi hudud va ma‘muriy-hududiy tuzilmalar iqtisodiy faollikni kengaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, amaliy natijalar shundan dalolat beradiki, viloyat o‘z salohiyatining yarmiga ham yaqin foydalana olmayapti [1].

Qishloq xo‘jaligi resurslari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Toshkent viloyatidagi qishloq xo‘jaligi yerlari Andijon viloyatiga nisbatan 1,5 baravar ko‘p bo‘lsa-da, etishtirilayotgan mahsulot hajmi ularda deyarli bir xil. Bundan tashqari, 1 gektar erdan olinayotgan o‘rtacha iqtisodiy daromad Andijonga nisbatan 2 baravar, Namangan va Farg‘onaga nisbatan 1,5 baravar, Buxoro viloyatiga nisbatan esa 1,3 baravar kam ekanligi ma‘lum qilingan. Bu esa qishloq xo‘jaligida yerdan unumli foydalanish masalasi jiddiy echim talab qilishini ko‘rsatadi.

So‘nggi uch yilda viloyatdagi 21 ming gektar er dehqonchilik uchun 51 ming nafar aholiga ajratildi. Biroq, 2025 yil boshidan buyon faqat 72 million AQSh dollari miqdorida meva-sabzavot eksporti amalga oshirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilgi natijalarga nisbatan pasaygan.

Bundan tashqari, viloyat hududida samarasiz holda saqlanayotgan 2 200 gektar bog‘ va tokzorlar mavjud bo‘lib, ularning qayta tashkil qilinishi yoki ratsional foydalanilishi orqali yiliga kamida 10 million dollarlik qo‘shimcha eksport salohiyatini tiklash mumkin. Ushbu omillar viloyatda mavjud resurslardan samarali foydalanish, agrar sohani modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirish zarurligini yanada yaqqol namoyon qiladi.

Toshkent viloyati so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror o‘sish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Viloyat yalpi hududiy mahsulot hajmi, sanoat va xizmatlar sohasidagi ulushi, shuningdek, tadbirkorlik sub‘ektlari soni va investitsiyaviy faolligi ortib borayotgani aholi farovonligi oshishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududdagi mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanmaslik, agrar sohadagi unumdorlikning pastligi, raqamlashtirish va innovatsiyalardan keng foydalanilmasligi kabi muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Toshkent viloyati o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqara olganicha yo‘q, xususan, qishloq xo‘jaligi, kichik biznesni rivojlantirish va ish o‘rinlari yaratish yo‘nalishlarida hali ham katta imkoniyatlar saqlanib qolmoqda. Shu bois hududni barqaror va kompleks rivojlantirish uchun tizimli yondashuv va zamonaviy boshqaruv strategiyalari joriy etilishi zarur [2].

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barkaror rivojlantirish, viloyat aholisi turmush farovonligini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

1. Iqtisodiy diversifikatsiyani chuqurlashtirish – Yalpi hududiy mahsulotda sanoat va xizmatlar sohaci ulushini oshirish maqsadida turli tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha hududiy klasterlar tuzish.

2. Qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish – Qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumdorlikni oshirish uchun raqamli agrotexnologiyalar, intensiv usullar, fermer xo‘jaliklariga bilim va texnika ko‘magi taqdim etilishi lozim.
3. Innovatsiya va raqamlashtirishni joriy etish – Barcha tarmoqlarda raqamli boshqaruv, avtomatlashtirish va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.
4. Turizm va xizmatlar sohasini kengaytirish – Toshkent viloyatida mavjud turizm salohiyatidan foydalanish, ichki va xalqaro sayyohlar uchun infratuzilmani yaxshilash.
5. Sanoat hududlarini ixtisoslashtirish va kengaytirish – Angren, Olmaliq, Ohangaron kabi sanoat markazlarini maxsus industrial zonalar sifatida rivojlantirish va logistika imkoniyatlarini kengaytirish.
6. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash – Soliq va ma‘muriy imtiyozlar orqali kichik va o‘rta biznes sub‘ektlarini faol qo‘llab-quvvatlash, startaplar uchun inkubatorlar tashkil qilish.
7. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish – mehnat bozori talabiga mos kadrlar tayyorlash, kasbiy ta‘lim muassasalari va korxonalar o‘rtasida hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish.
8. Eksport salohiyatini oshirish – Bog‘dorchilik va sabzavot etishtirishda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, eksport infratuzilmasini takomillashtirish.
9. Ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash – Sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy himoya sohalarini raqamlashtirish va aholiga yaqinlashtirish.
10. Bog‘ va tokzorlarni qayta tiklash – Samarasiz yerlardan oqilona foydalanish, yangi intensiv bog‘lar va tokzorlar tashkil etish orqali qo‘shimcha eksport daromadiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kutbitdinova M. I., Matrizaeva D. Yu. Yangi O‘zbekiston: hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 5. – S. 506-515.
2. Inomjonova F. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish qishloq xo‘jaligini ta’siri // Перспективы реформирования и устойчивого развития народного хозяйства. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – S. 633-636.
3. Rayimjanov R. Z., Ernazarov Sh. E. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga keltirishning xorij tajribasi //Ekonomika i sotsium. – 2023. – №. 11 (114)-2. – S. 912-917.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining tegishli yillar bo‘yicha ma’lumotlari, www.stat.uz